

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ HÁM ORTA ARNAWLÍ
BILIMLENDIRIW MINISTRILIGI**

**ÁJINIYAZ ATÍNDAĞÍ NÓKIS MÁMLEKETLIK
PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍ**

**«Tálimdi jetilistiriwde innovaciyalıq usılda oqıtıw hám tárbiyalaw»
atamasındağı**

Respublikalıq ilimiy-ámeliy konferenciya

MATERIALLARÍ

25-26-NOYABR 2022-JÍL

**«Ta’limni takomillashtirishda
innovatsion uslubda o‘qitish va tarbiyalash» mavzusidagi**

Respublika ilmiy- amaliy anjuman

MATERIALLARI

25-26 NOYABR 2022 YIL

NÓKIS- 2022

2. Olimov Q.T., Jalolova D.F., Karimova M.N. va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi –T. Fan va texnologiya
3. <http://www.uzedu.uz/>
4. <http://www.ziyonet.uz/>

TA'LIMNI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Uljalg'as Tulegen qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

KIRISH

Oliy ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish, uni yuqori darajada mustahkamlash, tegishli chora tadbirlarni amalga oshirish bilan bir qatorda jamiyatimizning har bir a'zosidan innovatsion yondashuvni, ilmiy ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalar yaratishni taqazo etadi. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi[3]. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz."

Oliy ta'limni boshqarishda zamonaviy innovatsion texnologiya bugungi kunda eng ko'p qo'llanadigan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asosan Oliy ta'limning rivojlanishi ularning maqsad hamda vazifalarini tobra bir-biriga yaqilashtirib ularni birlashtirmoqda.

Oliy ta'limni boshqarishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar barkamol avlodni va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishlari, etilgan masalalarni o'z vaqtida va ijodiy hal etishlari barcha o'quv yurtlarining ish samaradorligini hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirilishini ta'minlashlari kerak[1].

Bu barcha davlat va jamoat tashkilotlarining vazifasi bo'lishi bilan birga, tabiiyki, eng avvalo, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari faoliyati mazmunini tubdan, qaytadan ko'rib chiqishni taqazo etadigan murakkab jarayondir. Bularning barchasi Oliy ta'limni boshqarish va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Buning uchun ta'limni boshqarish va rivojlantirish belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet ellik yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin[2].

Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi barcha universitetlarni, kasb-hunar texnikumlarni, bilim yurtlarini boshqaradi va rahbarlik qiladi. Oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar ta'limi uchun o'quv rejaları va dasturlar ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Oliy ta'limga oid ishlarni boshqarish quyidan yuqorigacha oldindan rejalashtirib, ta'limning barcha sohalaridagi ish jarayoni bilan uyg'unlashib, barcha o'quv tarbiya muassasalarining ish mazmuni belgilanadi. Boshqarish jarayonida turli innovatsion usullardan keng foydalaniladi. O'quv tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyaning to'g'ri joriy etilishi, o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talabalardan ko'proq mustaqillikni, ijodiy va irodaviy sifatlarini shakllanishini o'tkazilgan mashg'ulotlar esa yoshlarning hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishga imkon yaratib, ularning mustaqil fikrlashlarini talab etadi[3].

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotlarni o'zlashtirgan, bu axborotlatni o'zlari

tomonidan bahlashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Bu borada Oliy ta'limini innovatsion texnologiyalarning boshqarish jarayonidagi o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Innovatsiya (inglizcha-innovation) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogic jarayon hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijodiy faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi, chunki ta'limda boshqaruv rolini o'qituvchi bajaradi[3].

Interfaol usullarga "Semenar musobaqa" texnologiyasi "Tanishuv" texnologiyasi, "Zinama-zina" texnologiyasi, "Aqliy hujum" texnologiyasi, "Charxpalak" texnologiyasi, "Klaster" texnologiyasi, "Bumerang" texnologiyasi, "3x4" texnologiyasi, "Rezyume" texnologiyasi, va boshqalar kiradi.

Masalan, "Semenar musobaqa" texnologiyasi darslarini tashkil etish ko'p yildan beri ta'limda keng qo'llanib kelinadi. Bu usul talabalarining qiziqishini va aktivligini oshiradi. Bu usulga tayyorgarlik ko'rish uchun talabalar oldindan ogohlantiriladi va mavzu e'lon qilinadi. Talabalar guruhi 2 kichik guruhchalarga bo'linadi. Ularning har biri mavzu bo'yicha savollar tayyorlab kelishi lozim. Semenar boshida talabalar musobaqa shartlari bilan tanishtiriladi. Bunda faqat javoblar uchun emas balki savollarni to'g'ri va aniqligi uchu va qo'shimcha tuzatishlar uchun ham ma'lum ballar belgilanadi. Guruh talabalarining barchasi faol qatnashishlari uchun esa minus (-) ballar ham ko'rsatilishi mumkin, masalan, +3 dan -3 gacha noto'g'ri javoblar va savollar uchun ballarni ayirish usuli ishlatilishi mumkin. Musobaqa davomida doskaga to'plangan ballar yozib borilishi mumkin. Semenar oxirida g'olib guruh qatnashchilari qo'shimcha ballar bilan rag'batlanishi mumkin[2]. Pedagog ta'lim jarayonini boshqaruvchi sifatida juda hushyor va sinchkovlik bilan javoblarni eshitib, har bir talabaga baho qo'yib borishi lozim. Bu usul bilimlarni yanada mustahkamroq egallanishiga, nutq madaniyatini oshishiga, savollarni to'g'ri tuzilishiga, o'z fikrini bayon etishga o'rgatadi. Eng muhimi esa, taladalardan mustaqil bilimlarni egallash, yangiliklarni qidirish, mavzuga ijodiy yondashish hususiyatlari oshadi. O'rganilayotgan mavzu har tomonlama tahlil etiladi va hayotiy jarayonlar bilan bog'lanadi. Bunday innovatsion texnologiyaning dastlabki ko'rinishlari oliygohlarda qo'llanilsa yuqori natijalarga erishsa bo'ladi.

Kichik guruhchalar usuli. Bu usulda guruh talabalari bir necha guruhga bo'linadi, har bir guruhda 4-5 tadan talaba bo'lishi mumkin. Har bir guruhning rahbari tayinlanadi. Ularga oldindan vazifa beriladi. Guruh talabalari semenarga birgalikda tayyorlanib o'z savollarini to'liq ochib berishga harakat qilishlari kerak. Boshqa guruhlar asosiy ma'ruzachiga savollar beradilar, savollarga guruhning talabalari javob berishda yordam beradilar. Asosiy ma'ruzachi himoyasidan so'ng opponentlar savolni yanada to'liqroq izohlab berishlari kerak[1]. Uchinchi va to'rtinchi guruh talabalari o'zlarini fikrlarini bildirgach, tadqiqot olib brogan guruhga baho qo'yib izoh berishlari kerak. Bunday usulda ish olib boorish uchun guruhlarni tuzishda talabalarining bilimi teng bo'lishiga harakat qilish kerak. Guruhni boshqarishda yahshi o'zlashtiruvchi talabalarni tanlash lozim. Bunday innovatsion texnologiyaga oid bellashuvlar tugagach bo'lim yuzasidan boshqa turli musobaqalar o'tkazish mumkin.

XULOSA

Bu borada innovatsion texnologiyaga oid didaktik o'yinlarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva, U. T., (2022). Умумий ўрта таълим мактабларида қардош халқлар

адабиётини қиёсий ўқитишнинг илмий - назарий асослари. Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta'lim texnologiyalari, 1(1), 272 – 274.

2. Abdullayeva, U. T., (2021). Туысқан халықтар әдебиетін оқыту. Независимый казахстан: современный образовательный потенциал и достижения, 1(3), 9-11.

3. Abdullayeva, U. T., (2021). Учащихся школы «человек слова» понятие о технологии применения темы проходит резюме. Кластер педагогического образования: проблемы и решения, 1(2), 1181-1183.

XALQ HUNARMANDCHILIGIDA MILLIY MAHSULOTLARNI SOTUVGA CHIQARISHDA QADOQLASHNING TURLARI VA KLASSIFIKATSIYASI

Qarshu DU Texnologik ta'lim erkin izlanuvchisi **Mirzayeva G. M.**

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

A. A.Raxmatov San'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi

Oliy ta'lim tizimida bakalavrlar tayyorlashda Xalq hunarmandchili va badiiy loyihalash fanida milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ichlab chiqish, ichki bozorni xaridorgir mahsulotlar bilan to'ldirish va eksport salohiyatini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, milliy mahsulotlarni ishlab chiqish korxonalari o'z brend, logitip, etiketikalarini yaratishlari va sotuvga chiqarishdan avval mahsulotlarni qadoqlab so'ngra istemolga chiqarishlari lozim bo'ladi.

Maxsulotlarni qadoqlashda avvalo o'ram materiallarining xususiyatlarini aniqlash, o'ram uchun material, grafik tasvir, shirift va bezak tanlash, o'ramning qulay echimiga ta'sir qiladigan omillarni o'rganish, o'ram loyihalash bohqichlari va uning badiiy grafik kompozitsiyasini yaratish hamda xaridorlarning e'tiborini o'ziga jalb qilish xususiyatlarini hisobga olish lozim.

O'ramlash (qadoqlash) milliy mahsulotni zarar va yo'qotishlardan, atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qiluvchi vosita yoki vositalar to'plami. Asosiy maqsad mahsulotlarni noqulay tashqi sharoitlardan himoya qilish, tovarlarning miqdoriy yo'qotishlarini kamaytirish, mahsulot zarralarining atrof-muhitga kirib kelishining oldini olishdir. Marketingni qadoqlash idrokining o'ziga xos xususiyati shundaki, u mahsulotni markalash yoki rang-barang bezatish vositasi, iste'molchilarning xohish-istaklarini yaratish vositasi sifatida qaraladi.

Marketing nuqtai nazaridan qadoqlash(o'ramlash)-bu mahsulotning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lum bir tarzda ishlab chiqilgan mahsulot qobig'i, masalan, sut mahsuloti uchun mo'ljallangan karton qutti, polimer yoki shisha idish.

Qadoqlash bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, do'konga kelganda iste'molchi qadoqlash haqida o'ylamaydi, lekin birinchi navbatda unga e'tibor beradi. Mahsulot joylashtirilib, ishlatilmaguncha, u o'z-o'zidan mavjud emas, lekin qadoqlash iste'molning bo'linmas birligini tashkil qiladi.

Milliy mahsulotlar uchun qadoqni ishlab chiqish vazifalaridan biri uning tarkibidagi samaradorlikka bo'lgan ishonchni taklif qilishdir. Paketning asosiy kuchi-bu aqlni chetlab o'tib, iste'molchining hushyorligini xira qilish qobiliyatidir. Iste'molchilar har kuni uyda ham, ishda ham paketlarga duch kelishlariga qaramay, ularni ko'rmaydilar. Qadoqlash faqat bosib chiqarish qiyin bo'lganda yoki uni tashlash vaqti kelganida seziladi. Paketning maqsadi bir vaqtning o'zida ishonchni jalb qilish va ilhomlantirishdir. Bu sizni zavqni kutishga majbur qiladi va shu bilan birga uni tashlab yuborish kerak bo'lganda behuda isrof-garchilik tuyg'usini keltirib chiqarishi mumkin (1-rasm).

62	U.Sadaddinov, A.Qurmanov. N.Niyazimbetova Ómir iskerligi qawipsizligi páninen qadagalaw jumislarin jańa pedagogikaliq texnologiyalardan paydalanip ótkeriw.....	120
63	У. Сададдинов Бўлажак технология ўқитувчиларининг маънавий-ахлокий тайёрлаш тизимини такомиллаштириш.....	121
64	Хамдамova V.A. Texnologik ta'limning uzviyligi va unda mavjud kamchiliklar echimiga takliflar.....	123
65	Сайдалиева Фарзона Ўткир қизи Бўлажак “технология” фани ўқитувчиларининг универсал компетенцияларини ривожлантириш.....	126
66	A.A. Sharipov, S.M.Hamroboyeva Rangli metallar (aluminium (AL)) va ularning qotishmalarini o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.....	128
67	U.T. Abdullayeva Ta'limni boshqarishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	130
68	Mirzayeva G. M., A. A.Raxmatov Xalq hunarmandchiligida milliy mahsulotlarni sotuvga chiqarishda qadoqlashning turlari va klassifikatsiyasi.....	132
69	S.T. Eshanova Texnologiya fanini o'qitishda muammolar va echimlar.....	136
70	M.Ibragimova, I.Turunova Texnologik ta'limi jarayonida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish.....	137
71	Бекимбетов М.Н., Тагаева Г.Б. Технология фанидан адабиётлар, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва хорижий тажрибаларнинг қиёсий таҳлили.....	138
72	К.А.Кутлымуратов Аудитория машғулотида касбий компетенцияларни миллий кадриятлар асосида ривожлантириш технологиялари.....	141
73	Х.А. Қулмаматова Технология фанини ўқитишда ўқувчиларга амалий топшириқларни бажариш кўникмаларини дарсда ривожлантириш.....	144
74	G.M. Mirzayeva Xalq hunarmandchiligida buyumlarni badiiy loyihalashda kombinatorika elementlaridan foydalanish.....	146
75	Мамажонova Камола Акромовна Ўқувчиларни касб танлашга йўналтиришда синергетик ёндашув дастурининг моҳияти.....	149
76	J. E. Tursunov O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (Texnologiya darslari misolida)	151
77	R. I. Meliboyev Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	155
78	Қ. Султанбаев Олий таълим муассасаларида инновацияларнинг илм-фан самарадорлигига таъсири.....	159
79	F.A. Nasrullayeva Texnologiya dars mashg'ulotlarini tashkil etishda akt va pedagogik texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi.....	161
80	R.A.Siddiqova, N.Abdullayeva, N.Abdulhodiyeva Yog'och materialshunosligi asoslari va ularga qo'lda ishlov berish texnologiyasi.....	162
81	Sh. D. Burxonova Bo'lajak bakalavrlarda texnologiya ta'limini rivojlantirishda nazariya va amaliyot uyg'unligi.....	165
82	J.B. Jumabaev, Z.K. Seytmamutova Tálimdi jetilistiriwde innovacion ilimniń rawajlaniwi.....	166